

TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATI

Abdullayeva Ilmira Boltayevna

*Xiva pedagogika kollejining "Pedagogika, psixologiya"
kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Bugungi kunda pedagogik mahoratga ega bo'lish talabi faqatgina o'qituvchilarga emas, shu bilan birga jamoa bilan, ijtimoiy sub'ektlar bilan ishlaydigan har qanday mutaxassislarga ham qo'yilmoqda. Maqolada ta'lim- tarbiya jarayonida pedagogik mahoratning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik mahorat, kasbiy faoliyat, talimda innovatsiyalar, metodika, ta'lim texnologiyalari, pedagogik qobiliyat.

Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tarbiyachi-o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog'liq. Ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy jarayon bevosita tarbiyachi tomonidan tashkil qilinadi va olib boriladi. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta'lim-tarbiyada ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, bolalaming mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari xilma- xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish tarbiyachilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu pedagog va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy- ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur",- degan fikrlari katta ahamiyat kasb etadi.¹Mamlakatimizning istiqbol yo'lidagi ilk qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash . zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadida ta'lim tizimida ulkan bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi Qonunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarda o'qituvchi-tarbiyachilaming mehnati naqadar yuksakligi, ular oldida barkamol avlodni tarbiyalashdek sharafliligi va mas'uliyatli vazifa turganligi ta'kidlanadi . Pedagogik mahorat — o'qituvchilaming shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi,

fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, tarbiyachilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir tarbiyachining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradi, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab ko'proq natijalarga erishish imkonini beradi. "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir",-degan edi milliy tarbiyamiz daholaridan biri A.Avloniy. Hayot, najot, saodatga eltuvchi ish, tarbiyani amalga oshiruvchi zot-o'qituvchidir. Pedagogik qobiliyatlar tarbiyasi birinchi bo'lib, XIX asr o'rtalarida paydo bo'ldi. Desterverg 1-chi bo'lib pedagogik qobiliyat, persektiv qobiliyatlar haqida gapirib bu masalaga e'tiborini qaratdi. U pedagogik qobiliyatning kuchiga, pedagogik taktga va qat'iy erkinlikka e'tibor berdi. Pedagogik mahorat - yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy vondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib. u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o'tmish qadriyatlarini, o'rta Osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiylarni tayyorlash to'g'risidagi ma'lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo'lish, ilg'or xorijiy davlatlarning o'qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o'rganish jarayonida tarkib topadi. Mahoratni egallash uchun ko'p narsani bilish va qila bilish zarur. Tarbiya printsiplari va qonunlarini hamda uning tashkil etuvchilarini bilishi zarur. O'quv-tarbiyaviy jarayon va uning tashkil etuvchilarni samarador texnologiyalardan foydalanish uchun har bir konkret holat uchun ularni to'g'ri tanlab olishni, diagnostikalashni, oldindan bilishni va berilgan daraja va sifat jarayonini loyihalashni juda yaxshi bilishi zarur. "Men faqat «buyoqqa kel»ni 15-20 xilda gapira olganimdan, aft, tashqi qiyofa va ovozni 20 ko'rinishda bera olganimdan so'nggina haqiqiy masterga aylandim,- deydi buyuk pedagog A.S. Makarenko. Tarbiyachi bolalarga ta'lim berishni kun davomida amalga oshiradi: ularning bilimlarini boyitadi, madaniy, gigienik, xulq madaniyati, nutqi, sanoq-hisob, harakatlari kabi turli-tuman malaka va ko'nikmalarini shakllantirib boradi. Ammo ta'lim berishda bosh rolni mashg'ulot egallaydi. Mashg'ulotlar bolalar bog'chasida ta'limni tashkil etish shaklidir. U maktabgacha tarbiya yoshidagi hamda bolalar uchun majburiydir, unda dastur mazmuni belgilab berilgan. Kun tartibida unga ma'lum o'rin va vaqt ajratilgan. Mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladi, tarbiyachi mashg'ulotlarda bolalarni yangi bilimlardan xabardor qiladi, bolalar egallab olgan bilimlarini esa aniqlab mustahkamlaydi. Bolalarning amaliy mashg'ulotlarini tashkil

etadi. O`quv materialining mazmuni asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Demak, mashg`ulot bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Mashg`ulot bolalarda barqaror diqqat, irodani, diqqatni jalb eta olish kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Ayniqsa, bolalarga bilim berishni jamoa usulida olib borish katta ahamiyatga birgalikdagi faoliyatda bolalar bir- birlariga faol ta'sir etishadi, o`z tashabbusi, topag`onligini namoyon qilish imkoniyati tug`iladi. Bolalar ishiga zo`r berishni talab etuvchi vazifa qo`yilganda birgalikda qayg`urishadi, jamoatchilik hissi shakllanadi

Demak, pedagog bolani har tomonlama rivojlantirishga yo`naltira oluvchi shaxsdir. Shunday ekan, kasbni mukammal egallab har bir mashg`ulotni bir qiziqarli asar yoki esda qoladigan kinofilm kabi o`tishni har bir pedagog uddalay olishi kerak. Deyarli har bir darsimda o`quvchilarni psixologik holatidan kelib chiqib yangi-yangi o`yinlar o`ynatishga harakat qilaman.

Xulosa o`rnida shu ta`kidlash joizki, ta`lim –tarbiya jarayonida faoliyat ko`rsatayotgan pedagog xodimlar o`z ustida tinimsiz ishlashi, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalaridan samarali foydalana olishi va ularni dars jarayonlariga tadbiq eta olishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Shodmonova. Maktabgacha pedagogika. T., «Fan va texnologiyalar», 2005.
2. A. Holiqov. Pedagogik mahorat. T., «Iqtisod — Moliya», 2010.
3. U. Tolipov, M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T., «Fan», 2005.
4. Maktabgacha ta'limning davlat standarti. O`zPFITI. T., 1995.
5. P. Yusupova. Maktabgacha pedagogika. T., «O`qituvchi», 1996.